



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

**2026-YIL / IYUN/6-SON,
V-QISM**



INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
V-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

| | |
|---|----|
| KORPORATIV BOSHQARUVDA ESG TAMOIYLLARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY TAHLILI..... | 12 |
| I. R. Berdikulova | |
| TEKSTIL SANOATIDA SUV ISTE'MOLI VA QAYTA ISHLASH ULUSHI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: 20 DAVLAT MISOLIDA KORRELYATSIIYA VA K-MEANS KLASTER TAHLILI..... | 16 |
| Zayniyev Diyorbek Zokir o'g'li | |
| Turobova Hulkar Rustamovna | |
| O'ZBEKISTONDA BIZNES BIRLASHUVLARINI HISOBGA OLISHNI MHXS (IFRS) 3 ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH..... | 24 |
| Davletov Ikrom Raximberganovich | |
| VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR AUDITINI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISH TARTIBI..... | 33 |
| Jo'rayev Dilshod Xudoyqulovich | |
| СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА УПРАВЛЕНИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ | 38 |
| Абдуллаева М.Б. | |
| AGROSANOAT MAJMUASIDA INTEGRATSION TUZILMALARNING ISTIQBOLLI SHAKLLARINING NAZARIY ASOSLARI..... | 44 |
| Murodov Sherzodbek Murod o'g'li | |
| RESPUBLIKADA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING BOZOR MEXANIZMI..... | 51 |
| Kalandarova Elnura Muzaffar qizi | |
| TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MAHALLALARDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHGA KO'MAKLASHISH..... | 55 |
| Niyozov Zuxur Davronovich | |
| Yarlaqabov Faxriddin Baxodir o'g'li | |
| СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОТЧЕТА О ФИНАНСОВОМ ПОЛОЖЕНИИ КОМПАНИИ В СООТВЕТСТВИИ С ТРЕБОВАНИЯМИ МСФО | 58 |
| Худойкулова Дилора Дилмуродовна | |
| SANOAT KORXONALARINING INVESTITSIYALARI TARKIBI VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINING IQTISODIY TAHLILI..... | 64 |
| Karimova Saodatxon Ulug'bek qizi | |
| XALQARO MOLIVAVIY HISOBOT STANDARTLARIGA MUVOFIQ JORIY AKTIVLARNI HISOBGA OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH..... | 71 |
| Mavlyanova Dilobar Maxkamovna | |
| DAVLAT TOMONIDAN TURIZM SOHASINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH | 77 |
| Karimova Dilafruz Sadridin qizi | |
| МЕТОДЫ АНАЛИЗА ЦИФРОВИЗАЦИИ В РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ..... | 82 |
| Ахмедова(Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи | |
| AHOLI ZICH JOYLASHGAN HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY OMILLARI VA HORIJIIY TAJRIBA TAHLILI | 89 |
| Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna | |
| Nematjonova Risolatxon Dilshodbek qizi | |
| JANUBIY KOREYA TAJRIBASIDA CHIQINDILARNI BOSHQARISHDA EPR TIZIMI VA RAQAMLI YECHIMLARINING O'RNI | 94 |
| Otarbayev Zamir Zairovich | |



| | |
|---|-----|
| SANOAT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI INVESTISIYALAR ASOSIDA OSHIRISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI | 100 |
| Urazaliyev Bekzod Sultanbayevich | |
| ЦИФРОВЫЕ НАВЫКИ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ЖЕНСКИХ КАДРОВ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ УЗБЕКИСТАНА..... | 107 |
| Дониёрова Зухрабону Алишер кизи | |
| TURIZM SUG'URTASI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI..... | 113 |
| Ho'jamov Akbar Bahriddinovich | |
| KELAJAKDAGI GLOBAL VA MINTAQAVIY IQLIM O'ZGARISHI HAMDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH ZARURIYATI..... | 118 |
| Djumayev Askar Xaydarovich | |
| SAMARQAND VILOYATI UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA RESURSLARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGI..... | 123 |
| Erdonov Muhammadamin Erdon o'g'li | |
| Qahhorova Nargiza Qahramonovna | |
| Rafiqjonov Damir Raxim o'g'li | |
| Jamilov Firdavs Otabek o'g'li | |
| ПУТИ РАСШИРЕНИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УПРАВЛЕНИИ БАНКОВСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ | 129 |
| Норкулов Хабибулло | |
| Абдурасулова Шахзода | |
| Бахриддинов Дилшодбек | |
| NATIV BRENDING VOSITASI SIFATIDA UGC VA EGC: GLOBAL TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTON BOZORIGA MOSLASHUV | 135 |
| Yuldasheva Mahliyo Baxtiyor qizi | |
| SOLIQ TO'LOVCHILARGA XIZMAT KO'RSATISHDA RAQAMLASHTIRISH ORQALI SOLIQ MA'MURCHILIGINING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI | 138 |
| Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich | |
| НАУЧНЫЕ ПОДХОДЫ И ПРИНЦИПЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЦИФРОВОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ ПРИ УПРАВЛЕНИИ БИЗНЕС-ПРОЦЕССАМИ | 147 |
| Джуманов А.А. | |
| BANK SEKTORIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA XARAJAT SAMARADORLIGI: XALQARO TAJRIBA ASOSIDA EKONOMETRIK BAHOLASH..... | 157 |
| Masharipova Durdona Ulug'bekovna | |
| РАЗВИТИЕ ИНСТРУМЕНТОВ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ..... | 164 |
| Джуманов А.А. | |
| DAVLAT XARIDLARIDA SUN'IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN NARXLAR MODULINI JORIY ETISH: KORRUPSIYAGA QARSHI KOMPLAYENS, HISOBDORLIK VA RAQOBATNI KUCHAYTIRISH YO'NALISHLARI..... | 174 |
| Rahmanov Furqat Temirovich | |
| АНАЛИЗ НА ОСНОВЕ МОДЕЛИ АЛЬТМАНА ПРИ ОЦЕНКЕ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН | 179 |
| Ибрагимов Гайратжон Артикович | |
| TIJORAT BANKLARIDA RISKLARNI BOSHQARISHNINZ ZAMONAVIY MODELLARI VA KOMPLAYENSNAZORAT TIZIMINI RIVOJLANTIRISH | 186 |
| Fayziyev Sherzod Djunaydilloyevich | |
| SUN'IY INTELLEKTNING MEHNAT UNUMDORLIGI VA MOBILIGIGA TA'SIRI..... | 192 |
| Shakarov Zafar Gafforovich | |



| | |
|---|-----|
| URGUT ERKIN IQTISODIY ZONASIDA SANOAT TARMOQLARINI KLASTERLASH SAMARADORLIGINING TAHLILI | 198 |
| Boboqulov Sanjar Baxronkulovich | |
| Qurbonov Tolmasjon Namoz o'g'li | |
| Uzoqov Rafiq O'lmas o'g'li | |
| INFRATUZILMA INVESTITSİYALARINING AHOLI FAROVONLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA HUDUDIY XUSUSIYATLARI | 204 |
| Jiyanov Laziz Najimovich | |
| «ЗЕЛЁНОЕ» ВОДОСНАБЖЕНИЕ В ЗАСУШЛИВЫХ РЕГИОНАХ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ ДЛЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ | 210 |
| Курбанова Дилфуза Махсудовна | |
| TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIKPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI | 217 |
| Karimova Feruza Xamidullayevna | |
| PAXTACHILIKDA ZAMONAVIY AGROTEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA EKOLOGIK MUVOZANAT TA'MINLASHNING IQTISODIY MEXANIZMI..... | 221 |
| Ishniyazov Zoxid Normamatovich | |
| FUQAROLAR MUHOJIRLARI MA'LUMOTLARI ASOSIDA HUDUDLARNING IJTIMOIIYIQTISODIY RIVOJLANISH DARAJASINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI | 226 |
| Inomov Daniyar Valijonovich | |
| O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA QIMMATLI QOG'OZLAR BILAN OPERATSIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH: HOLAT TAHLILI VA TAVSIYALAR..... | 232 |
| Niyozov Zuhur Davronovich | |
| Xolmurotov Sardor | |
| Haydaraliyev Avaz | |
| YAQIN SHARQDA TURIZM EKSPORTI STRATEGIYALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI: BAA VA SAUDIYA ARABISTONI TAJRIBASI ASOSIDA QIYOSIY TAHLIL | 238 |
| Tolibova Aziza To'lqin qizi | |
| BANKLARDA IJARA MUOMALALARINI TARTIBGA SOLUVCHI ME'YORIY - HUQUQIY ASOSLAR VA XALQARO STANDARTLAR..... | 243 |
| Sativaldiyeva Gulchexra Xudayberdiyevna | |
| QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA STRATEGIK RISK-MENEJMENT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH | 247 |
| Masharipova Sevara | |
| TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI | 251 |
| Ergashev Jamshid Jamoliddinovich | |
| Muhammadjonova Iroda Bahodir qizi | |
| BALIQCILIK TARMOG'INI INTENSIV RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ILMIY-NAZARIY ASOSLARI | 256 |
| Iskandar Yunusov | |
| YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA BARQAROR QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI: AGROEKOLOGIK VA IJTIMOIIY-IQTISODIY YONDASHUVLAR INTEGRATSIYASI | 262 |
| Mirzanov Berdak Joldasbeviç | |
| RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNING IPOTEKA KREDITLASH JARAYONINI OPTIMALLASHTIRISH MEXANIZMLARIGA TA'SIRI | 268 |
| A'zamxo'jayeva Nihol | |
| CHORVACHILIK MAHSULOTLARI STATISTIK KO'RSATKICHLAR TIZIMI: METODOLOGIYA VA TAKOMILLASHTIRISH | 273 |
| Aysachev Abdulfotix Abdulfaizovich | |



| | |
|---|-----|
| O'ZBEKISTONDA XIZMATLAR EKSPORTINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEKANIZMLARI..... | 278 |
| Ruziyeva Nigina Baxtiyorovna | |
| YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMIDA OLIB BORILGAN ISLOHOTLAR (MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMI MISOLIDA) | 284 |
| G.A. Norbo'tayeva | |
| YASHIL MARKETING VA ESG INTEGRATSIYASI: STATISTIK TAHLIL VA BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI | 288 |
| Charos G'ayratova | |
| РАЗВИТИЕ ЦИФРОВЫХ СИСТЕМ И ОБЗОР ИНСТРУМЕНТОВ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ..... | 294 |
| Джуманов, А.А. | |
| RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA INVESTITSİYALARNI JALB QILISH — IQTISODIY TARAQQIYOTNING MUHIM OMILI..... | 303 |
| Bayitova Rohatoy Bahrom qizi | |
| QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRUVCHILARNI SUG'URTA MEKANIZMLARI ORQALI MOLIYALASH MASALALARI | 307 |
| Xakimov Zafar Ibragimovich | |
| SOLIQ MA'MURCHILIGI ORQALI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING BARQAROR FAOLIYAT YURITISHINI TA'MINLASH MUAMMOLARI..... | 314 |
| Ahrorqulov Jonibek Otabek o'g'li | |
| FOOD PRICE VOLATILITY AND ITS EFFECTS ON LOW-INCOME HOUSEHOLDS | 320 |
| Rakhmatova Mukhlisa Dilshod qizi | |
| SUN'IY INTELLEKTNING O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI..... | 327 |
| Hamidova Shahzoda Odiljanovna | |
| MHXS VA XUSUSIY SEKTOR KREDITLARI: MAMLAKATLARARO EMPIRIK TAHLIL..... | 331 |
| Davronbek Matyakubovich Matkarimov | |



MHXS VA XUSUSIY SEKTOR KREDITLARI: MAMLAKATLARARO EMPIRIK TAHLIL

Davronbek Matyakubovich Matkarimov

Urganch RANCH texnologiya universiteti

Iqtisodiyot kafedrası dotsenti, PhD

ORCID: 0000-0003-1743-1010

E-mail: davronbekmatkarimov@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) talablari bilan xususiy sektor kreditlari o'rtasidagi mamlakatlararo bog'liqlik o'rganilgan. Tadqiqot doirasida 186 ta mamlakat va yurisdiksiya bo'yicha tahliliy ma'lumotlar bazasi shakllantirilgan. Bog'liq ko'rsatkich sifatida Jahon bankining Jahon taraqqiyoti ko'rsatkichlari bazasidagi "xususiy sektorga ajratilgan ichki kreditlar, yalpi ichki mahsulotga nisbatan foizda" indikatori olingan [1]. Mustaqil ko'rsatkich sifatida esa mamlakatda ommaviy yoki listingdagi kompaniyalar uchun MHXS asosida moliyaviy hisobot tayyorlash talabi mavjudligi ikkilik ko'rsatkich orqali ifodalangan [2; 3]. 2025-yil bo'yicha mazkur kredit ko'rsatkichining to'liq rasmiy ma'lumotlari hali mavjud emasligi sababli tahlilda 2024-yilgacha mavjud bo'lgan eng so'nggi qiymatlardan foydalanilgan [1]. Oddiy eng kichik kvadratlar usuliga asoslangan model natijalariga ko'ra, MHXS talabi mavjud bo'lgan mamlakatlarda xususiy sektor kreditlarining yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushi o'rtacha yuqoriroq ekani aniqlangan. Shu bilan birga, olingan natijalar sabab-oqibat munosabatini to'liq isbotlamaydi. MHXSning kredit bozoriga ta'siri moliyaviy hisobot sifati, audit ishonchliligi, axborotlarni ochib berish madaniyati, bank risk-menejmenti hamda institutsional muhit bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: MHXS, moliyaviy hisobot, xususiy sektor kreditlari, kredit bozori, axborot asimmetriyasi, mamlakatlararo tahlil, ekonometrik model.

Abstract. This article examines the cross-country relationship between International Financial Reporting Standards (IFRS) requirements and private sector credit. The study is based on a dataset covering 186 countries and jurisdictions. The dependent indicator is domestic credit to the private sector as a percentage of gross domestic product, obtained from the World Bank's World Development Indicators database. The independent variable is represented by a binary indicator reflecting whether IFRS-based financial reporting is required for public or listed companies. Since complete official data on the credit indicator for 2025 are not yet available, the analysis uses the latest available values up to 2024. The results of the ordinary least squares estimation show that countries with IFRS requirements tend to have a higher private-sector-credit-to-GDP ratio on average. However, the findings should not be interpreted as full causal evidence. The impact of IFRS on the credit market is shaped by the quality of financial reporting, audit reliability, disclosure practices, bank risk management and the institutional environment.

Keywords: IFRS, financial reporting, private sector credit, credit market, information asymmetry, cross-country analysis, econometric model.

Аннотация. В статье исследуется межстрановая связь между требованиями Международных стандартов финансовой отчетности (МСФО) и кредитованием частного сектора. База исследования охватывает 186 стран и юрисдикций. В качестве зависимой переменной использован показатель внутреннего кредита частному сектору в процентах к валовому внутреннему продукту по базе Всемирного банка. Независимая переменная представлена бинарным показателем, отражающим наличие требования подготовки финансовой отчетности по МСФО для публичных или листинговых компаний. Поскольку полные официальные данные по указанному кредитному показателю за 2025 год пока отсутствуют, в анализе использованы последние доступные значения до 2024 года включительно. Результаты оценки методом наименьших квадратов показывают, что в странах, где действуют требования МСФО, отношение кредитов частному сектору к ВВП в среднем выше. Вместе с тем полученные результаты не следует трактовать как окончательное доказательство причинно-следственной связи. Влияние МСФО на кредитный рынок проявляется во взаимосвязи с качеством финансовой отчетности, надежностью аудита, практикой раскрытия информации, банковским риск-менеджментом и институциональной средой.

Ключевые слова: МСФО, финансовая отчетность, кредиты частному сектору, кредитный рынок, информационная асимметрия, межстрановой анализ, эконометрическая модель.



KIRISH

Moliyaviy hisobot xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati natijalarini aks ettirish bilan cheklanmaydi. U banklar, investorlar, kreditorlar va boshqa tashqi foydalanuvchilar uchun iqtisodiy qarorlar qabul qilishda muhim axborot manbai hisoblanadi. Ayniqsa, kredit bozorida qarz oluvchining moliyaviy holati, pul oqimlari, qarz yuklamasi, aktivlar sifati va majburiyatlar tarkibini baholashda moliyaviy hisobotlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, ya'ni MHXS, turli mamlakatlar va korxonalar moliyaviy axborotini taqqoslash imkoniyatini kengaytiradi. Mazkur standartlar asosida tayyorlangan hisobotlar banklar uchun axborot asimmetriyasini kamaytirishi, qarz oluvchining moliyaviy holatini aniqroq baholashga yordam berishi hamda kredit risklarini boshqarish jarayonini takomillashtirishi mumkin [2].

O'zbekiston sharoitida ham MHXSga o'tish masalasi moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshirish, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni rivojlantirish, korxonalarning investitsion jozibadorligini kuchaytirish va kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirish bilan bevosita bog'liq [3; 4; 5]. Shu sababli MHXS talablari va xususiy sektor kreditlari o'rtasidagi bog'liqlikni mamlakatlararo ma'lumotlar asosida o'rganish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi MHXS talablari mavjud bo'lgan mamlakatlarda xususiy sektor kreditlarining yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushi qanday shakllanishini mamlakatlararo empirik tahlil asosida baholashdan iborat. Maqolaning asosiy ilmiy farazi quyidagicha: MHXS talablari mavjud bo'lgan mamlakatlarda moliyaviy hisobot shaffofligi yuqoriroq bo'lgani sababli xususiy sektor kreditlari nisbatan kengroq rivojlangan bo'lishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) zamonaviy moliyaviy axborot tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati natijalarini xalqaro miqyosda taqqoslash, tahlil qilish va baholash imkonini beradi. Mavjud ilmiy va amaliy yondashuvlarda MHXS, avvalo, moliyaviy hisobotlarning shaffofligi, ishonchliligi va taqqoslanuvchanligini oshiruvchi muhim mexanizm sifatida talqin qilinadi. Ayniqsa, banklar va kreditorlar uchun moliyaviy hisobotlar qarz oluvchining moliyaviy holati, aktivlari, majburiyatlari, pul oqimlari hamda kreditga layoqatligini baholashda asosiy axborot manbai hisoblanadi.

Xalqaro tajribada MHXS talablarining joriy etilishi moliya bozori ishtirokchilari o'rtasidagi axborot asimmetriyasini kamaytirish, investorlar va kreditorlar uchun qaror qabul qilish jarayonini takomillashtirish hamda bank risk-menejmenti samaradorligini oshirish bilan bog'liq holda o'rganiladi. Jahon bankining Jahon taraqqiyoti ko'rsatkichlari bazasida xususiy sektorga ajratilgan ichki kreditlarning YaIMga nisbatan ulushi mamlakat moliya tizimi chuqurligi va kredit bozorining rivojlanish darajasini ifodalovchi muhim indikatorlardan biri sifatida qo'llaniladi. Shu nuqtai nazardan, xususiy sektor kreditlari ko'rsatkichi moliyaviy institutlar tomonidan real sektorni moliyalashtirish imkoniyatlarini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

MHXS fondi tomonidan yurisdiksiyalar kesimida taqdim etiladigan ma'lumotlar mamlakatlarda ommaviy yoki listingdagi kompaniyalar uchun MHXS asosida moliyaviy hisobot tayyorlash talablari turlicha shakllanganini ko'rsatadi. Ayrim mamlakatlarda MHXS majburiy tartibda qo'llanilsa, boshqa mamlakatlarda u ixtiyoriy yoki cheklangan doirada joriy etilgan. Bu esa MHXS talablari va kredit bozori rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlikni mamlakatlararo kesimda empirik tahlil qilish imkonini beradi.

O'zbekiston sharoitida ham MHXSga o'tish masalasi moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshirish, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish, korxonalarning investitsion jozibadorligini kuchaytirish va kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash bilan bevosita bog'liq. Xususan, mamlakatda aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari va yirik soliq to'lovchilar uchun MHXS asosida moliyaviy hisobot tayyorlash talablari bosqichma-bosqich kengayib bormoqda. Bu jarayon moliyaviy axborot sifatini oshirish bilan bir qatorda bank kredit tahlilini takomillashtirishga ham xizmat qiladi.

Mavjud adabiyotlar va amaliy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, MHXSning kredit bozoriga ta'siri faqat standartlarning rasmiy joriy etilishi bilan cheklanmaydi. Uning real samarasi moliyaviy hisobot sifati, auditorlik nazorati, axborotlarni ochib berish madaniyati, banklarning moliyaviy tahlil salohiyati va umumiy institutsional muhit bilan uzviy bog'liqdir. Shu sababli MHXS talablari kredit bozorini rivojlantirishning muhim sharti sifatida baholansa-da, uni yakka omil sifatida talqin qilish ilmiy jihatdan yetarli emas.

Umuman olganda, mavzuga oid adabiyotlar va rasmiy ma'lumotlar MHXS talablari, moliyaviy hisobot shaffofligi va xususiy sektor kreditlari o'rtasida muhim nazariy hamda amaliy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Mazkur maqolada aynan shu bog'liqlik 186 ta mamlakat va yurisdiksiya bo'yicha shakllantirilgan ma'lumotlar bazasi asosida ekonometrik jihatdan baholangan.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda mamlakatlarda kesimdagi ekonometrik tahlil yondashuvi qo'llanildi. Tahlil bazasi 186 ta mamlakat va yurisdiksiya bo'yicha shakllantirildi. Bunda alohida mamlakatlar bilan bir qatorda umumiy mintaqaviy guruhlar yoki iqtisodiy bloklar kiritilmadi. Ya'ni "Yevropa Ittifoqi", "yuqori daromadli mamlakatlar", "o'rta daromadli mamlakatlar" kabi agregat birliklar tanlanmadan chiqarib tashlandi. Bu tanlanmaning tozaligini ta'minlash hamda regressiya natijalarini noto'g'ri talqin qilish xavfini kamaytirish maqsadida amalga oshirildi.

Bog'liq ko'rsatkich sifatida Jahon bankining Jahon taraqqiyoti ko'rsatkichlari bazasidagi "xususiy sektorga ajratilgan ichki kreditlar, yalpi ichki mahsulotga nisbatan foizda" indikatorini tanlandi. Ushbu indikator xususiy sektorga moliyaviy korporatsiyalar tomonidan ajratilgan moliyaviy resurslarni yalpi ichki mahsulotga nisbatan foizda ifodalaydi. Jahon banki metama'lumotlarida mazkur ko'rsatkich bo'yicha ma'lumotlar davri 1960–2024-yillarni qamrab olishi ko'rsatilgan [1]. Shu bois 2025-yil bo'yicha to'liq rasmiy qiymatlar hali mavjud emasligi sababli tadqiqotda 2024-yilgacha mavjud bo'lgan eng so'nggi qiymatlardan foydalanildi.

Mustaqil ko'rsatkich sifatida mamlakatda ommaviy yoki birja ro'yxatidagi kompaniyalar uchun MHXS asosida moliyaviy hisobot tayyorlash talabi mavjudligi olindi. Agar mamlakatda bunday talab mavjud bo'lsa, MHXS ko'rsatkichi 1 qiymatni, agar talab mavjud bo'lmasa yoki faqat ixtiyoriy tartibda ruxsat etilgan bo'lsa, 0 qiymatni oldi. Ushbu ko'rsatkich MHXS fondining yurisdiksiya profillari va MHXS qo'llanilishi bo'yicha xalqaro ma'lumotlar asosida shakllantirildi [2; 3].

Tahlil quyidagi ketma-ketlikda amalga oshirildi: birinchi bosqichda Jahon banki bazasidan kredit ko'rsatkichi bo'yicha mamlakatlar kesimidagi ma'lumotlar olindi [1]; ikkinchi bosqichda 2025-yil ma'lumotlari to'liq mavjud emasligi sababli 2024-yilgacha bo'lgan eng so'nggi qiymatlar ajratib olindi [1]; uchinchi bosqichda agregat hududiy birliklar chiqarib tashlandi; to'rtinchi bosqichda MHXS talabi bo'yicha ikkilik ko'rsatkich kodlandi [2; 3]; beshinchi bosqichda guruhlar o'rtachalari hisoblandi; oltinchi bosqichda oddiy eng kichik kvadratlar usuli orqali regressiya baholandi; yettinchi bosqichda natijalar mustahkamlashtirilgan standart xatolar asosida qayta tekshirildi.

Asosiy model quyidagi ko'rinishda ifodalandi:

$$KREDIT_i = \beta_0 + \beta_1 MHXS_i + \varepsilon_i$$

Bu yerda **KREDIT_i** — *i*-mamlakatda xususiy sektor kreditlarining yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushi;

MHXS_i — mamlakatda ommaviy yoki listingdagi kompaniyalar uchun MHXS talabi mavjudligini bildiruvchi ikkilik ko'rsatkich; **β₀** — erkin had; **β₁** — MHXS talabining kredit ko'rsatkichi bilan bog'liqligini ifodalovchi koeffitsiyent; **ε_i** — tasodifiy xato hadi (1-jadval).

1-jadval
Tadqiqotda foydalanilgan asosiy ko'rsatkichlar

| Ko'rsatkich | Mazmuni | O'lchov / kodlash | Manba |
|-------------|--|--|---|
| KREDIT | Xususiy sektorga ajratilgan ichki kreditlar | YalMga nisbatan foizda | Jahon banki [1] |
| MHXS | Ommaviy yoki listingdagi kompaniyalar uchun MHXS talabi | Talab mavjud bo'lsa — 1, aks holda — 0 | MHXS fondi yurisdiksiya profillari [2; 3] |
| Kuzatuvlar | Mamlakatlar va yurisdiksiyalar soni | 186 ta | Muallif hisob-kitoblari |
| Davr | Kredit ko'rsatkichi uchun mavjud bo'lgan eng so'nggi yil | 2024-yilgacha | Jahon banki metama'lumotlari [1] |

Jadvaldan ko'rinadiki, tahlilda asosiy e'tibor ikki o'zgaruvchiga qaratildi: xususiy sektor kreditlari va MHXS talabi. Bunda kredit ko'rsatkichi miqdoriy ko'rsatkich, MHXS talabi esa sifat ko'rsatkichi bo'lib, ekonometrik modelda ikkilik o'zgaruvchi sifatida qatnashdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil bazasida jami 186 ta kuzatuv mavjud bo'lib, shundan 138 tasida ommaviy yoki listingdagi kompaniyalar uchun MHXS talabi mavjud, 48 tasida esa bunday talab mavjud emas yoki faqat ixtiyoriy tartibda qo'llaniladi [1; 2; 3]. Guruhlar bo'yicha dastlabki statistik hisob-kitoblar MHXS talabi mavjud bo'lgan mamlakatlarda xususiy sektor kreditlari ko'rsatkichi nisbatan yuqoriroq ekanini ko'rsatdi.



MHXS talabi mavjud bo'lgan mamlakatlar guruhida xususiy sektor kreditlarining yalpi ichki mahsulotga nisbatan o'rtacha ulushi 58,87 foizni tashkil etdi. MHXS talabi mavjud bo'lmagan yoki faqat ixtiyoriy tartibda qo'llaniladigan mamlakatlar guruhida esa ushbu ko'rsatkich 32,19 foizga teng bo'ldi. Guruhlar o'rtasidagi farq 26,68 foiz punktni tashkil etdi.

Oddiy eng kichik kvadratlar usuli bo'yicha baholangan modelda MHXS koeffitsiyenti 26,6808 ga teng bo'ldi. Bu natija MHXS talabi mavjud bo'lgan mamlakatlarda xususiy sektor kreditlarining yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushi o'rtacha 26,68 foiz punkt yuqoriroq ekanini bildiradi. Ushbu koeffitsiyentning ahamiyatlilik ehtimoli 0,000150 ga teng bo'lib, statistik jihatdan ahamiyatli natija hisoblanadi.

Model natijalari mustahkamlashtirilgan standart xatolar asosida ham tekshirildi. Mazkur tekshiruvda MHXS koeffitsiyenti bo'yicha ahamiyatlilik ehtimoli 0,000571 ga teng bo'ldi. Bu natija dastlabki xulosaning standart xatolar tanloviga kuchli bog'liq emasligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, determinatsiya koeffitsiyenti 0,0753 ga teng bo'lib, model kredit ko'rsatkichidagi farqlarning 7,53 foizini izohlashini bildiradi. Demak, MHXS muhim omil bo'lishi mumkin, biroq kredit bozorida farqlarni to'liq tushuntirish uchun yakka omil sifatida yetarli emas (2-jadval).

2-jadval
Ekonometrik tahlilning asosiy natijalari

| Ko'rsatkich | Qiymat |
|--|------------------|
| Kuzatuvlar soni | 186 |
| MHXS=1 kuzatuvlar | 138 |
| MHXS=0 kuzatuvlar | 48 |
| MHXS=1 guruh o'rtachasi | 58,87 |
| MHXS=0 guruh o'rtachasi | 32,19 |
| Guruhlar farqi | 26,68 foiz punkt |
| MHXS koeffitsiyenti | 26,6808 |
| Ahamiyatlilik ehtimoli | 0,000150 |
| Mustahkamlashtirilgan ahamiyatlilik ehtimoli | 0,000571 |
| Determinatsiya koeffitsiyenti | 0,0753 |

Aniq 2024-yil qiymatlari bo'yicha alohida tekshiruv ham amalga oshirildi. Ushbu kichikroq tanlanmada 123 ta kuzatuv mavjud bo'ldi [1]. Natija yo'nalishi ijobiy saqlangan bo'lsa-da, statistik ahamiyatlilik darajasi asosiy 186 ta kuzatuvli modelga nisbatan pastroq bo'ldi. Bu holat 2025-yil ma'lumotlari to'liq e'lon qilingandan so'ng hisob-kitoblarni qayta yangilash zarurligini ko'rsatadi.

Olingan natijalar MHXS talabi mavjud bo'lgan mamlakatlarda xususiy sektor kreditlari ko'rsatkichi yuqoriroq ekanini ko'rsatadi. Biroq ushbu natijani ehtiyotkorlik bilan talqin qilish zarur. Chunki mamlakatda MHXS talabining mavjudligi kredit bozorining rivojlanishini avtomatik tarzda ta'minlab bermaydi. Kreditlash hajmiga iqtisodiy rivojlanish darajasi, bank tizimi chuqurligi, moliya bozori infratuzilmasi, huquqiy himoya, inflyatsiya, davlat banklarining roli, kredit axboroti tizimi va institutsional muhit kabi ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi.

MHXSning kredit bozoriga ta'siri, avvalo, moliyaviy hisobot sifati orqali namoyon bo'ladi. Agar korxonalar moliyaviy hisobotlarida aktivlar, majburiyatlar, pul oqimlari, daromadlar, xarajatlar va moliyaviy risklar to'g'risidagi axborotlarni to'liq hamda ishonchli ochib bersa, banklar qarz oluvchining kreditga layoqatligini aniqroq baholay oladi. Bu esa kredit riskini kamaytirish, kredit shartlarini asosli belgilash va resurslarni samarali taqsimlash imkonini beradi.

Biroq MHXS faqat rasmiy jihatdan joriy etilib, amalda hisobot sifati yetarli darajada ta'minlanmasa, uning kredit bozoriga ijobiy ta'siri cheklangan bo'lib qoladi. Shu sababli MHXSning real ta'siri auditorlik nazorati, korporativ boshqaruv, moliyaviy axborotlarni ochib berish madaniyati va banklarning moliyaviy tahlil salohiyati bilan chambarchas bog'liq.

O'zbekiston uchun ushbu natijalar muhim amaliy ahamiyatga ega. Mamlakatda aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari va yirik soliq to'lovchilar uchun MHXS asosida moliyaviy hisobot tayyorlash talablari bosqichma-bosqich kengaymoqda [3; 4; 5]. Bu jarayon banklar tomonidan kredit tahlilini sifat jihatidan takomillashtirish, qarz oluvchilarning moliyaviy shaffofligini oshirish va kredit risklarini aniqlash amaliyotini kuchaytirish bilan birga olib borilishi lozim [6; 7].



Tadqiqotning yana bir muhim jihati shundaki, oddiy modelning determinatsiya koeffitsiyenti yuqori emas. Bu holat salbiy kamchilik sifatida emas, balki kredit bozori murakkab va ko'p omilli jarayon ekanining dalili sifatida talqin qilinishi kerak. Keyingi tadqiqotlarda modelga aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot, inflyatsiya, bank aktivlari, kredit axboroti tizimi, huquqiy himoya indeksi va muammoli kreditlar ulushi kabi nazorat o'zgaruvchilarini kiritish maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatlararo empirik tahlil MHXS talabi mavjud bo'lgan mamlakatlarda xususiy sektor kreditlarining yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushi o'rtacha yuqoriroq ekanini ko'rsatdi. 186 ta kuzatuv asosida baholangan modelda MHXS koeffitsiyenti ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli natija berdi. Bu holat MHXS talablari, moliyaviy hisobot shaffofligi va kredit bozori rivojlanishi o'rtasida muhim bog'liqlik mavjud bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, olingan natijalar sabab-oqibat munosabatini to'liq isbotlamaydi. MHXSning kredit bozoriga ta'siri bevosita emas, balki moliyaviy hisobot sifati, audit ishonchliligi, axborotlarni ochib berish madaniyati, bank risk-menejmenti va institutsional muhit bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Shuning uchun MHXSni joriy etish kredit bozorini rivojlantirishning zarur, ammo yetarli bo'lmagan sharti sifatida baholanishi lozim.

2025-yil bo'yicha xususiy sektor kreditlari indikatorining to'liq rasmiy ma'lumotlari hali mavjud emasligi sababli tadqiqotda 2024-yilgacha mavjud bo'lgan eng so'nggi qiymatlardan foydalanildi. Kelgusida 2025-yil bo'yicha to'liq ma'lumotlar e'lon qilingach, modelni yangilash, nazorat o'zgaruvchilarini qo'shish va natijalarni panel ma'lumotlar asosida qayta baholash maqsadga muvofiq.

Amaliy jihatdan O'zbekistonda MHXS asosidagi moliyaviy hisobotlarni bank kredit tahliliga chuqur integratsiya qilish, bank mutaxassislarining MHXS hisobotlarini o'qish va tahlil qilish bo'yicha kompetensiyasini oshirish, auditorlik sifatini kuchaytirish hamda moliyaviy hisobot sifati indikatorlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega [3; 4; 5; 7]. Bunday choralar kredit qarorlarining asoslanganligini oshirishga va xususiy sektorni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Jahon banki. Jahon taraqqiyoti ko'rsatkichlari bazasi: xususiy sektorga ajratilgan ichki kreditlar, YalMga nisbatan foizda. Ko'rsatkich kodi: FS.AST.PRVT.GD.ZS. URL: <https://databank.worldbank.org/metadataglossary/world-development-indicators/series/FS.AST.PRVT.GD.ZS>

MHXS fondi. MHXS standartlarining yurisdiksiyalar bo'yicha qo'llanilishi. URL: <https://www.ifrs.org/use-around-the-world/use-of-ifrs-standards-by-jurisdiction/>

MHXS fondi. O'zbekiston bo'yicha yurisdiksiya profili. URL: <https://www.ifrs.org/content/ifrs/home/use-around-the-world/use-of-ifrs-standards-by-jurisdiction/view-jurisdiction.html/uzbekistan>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son qarori "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". URL: <https://lex.uz/docs/-4746047>

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi 507-son qarori "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida". URL: <https://lex.uz/docs/4966554>

Xalqaro valyuta jamg'armasi. O'zbekiston moliya sektori barqarorligini baholash bo'yicha hisobot materiallari. URL: <https://www.imf.org/>

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Bank tizimi statistikasi va moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari. URL: <https://cbu.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>